Oʻzbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida hududiy davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini faollashtirish hamda ularning fiskal vakolatlarini kengaytirish orqali moliyaviy mustaqilligini taʼminlash obektiv zaruriyatga aylanmoqda. Zero, hududiy mutanosiblikni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy oʻsish nuqtalarini qoʻllab-quvvatlashda budjet tizimining fundamental boʻgʻini hisoblangan mahalliy budjetlarning oʻrni beqiyosdir. Shuningdek, mamlakatni rivojlantirishning strategik dasturlarida davlat budjet siyosati samaradorligini oshirish hamda hududlarning budjetlararo munosabatlarini takomillashtirish, moliyaviy barqarorligini kafolatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Budjetlararo munosabatlar bu turli darajadagi davlat hokimiyati organlari (markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari) oʻrtasidagi moliyaviy resurslarni taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tartibga solish tizimidir. “Oʻzbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tumanlar, shaharlar budjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamgʻarmalari budjetlari oʻrtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli budjetlarga biriktirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan tegishli budjetlarni moliyaviy resurslar bilan taʼminlashga doir munosabatlardir[1]”. Budjetlararo munosabatlar, asosan, davlatning iqtisodiy siyosatiga muvofiq ravishda

1 Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (01.01.2014-yil holatiga muvofiq)

budjet mablag'larini samarali qayta taqsimlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni yumshatish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni amalga oshitishda budjetlarar transfertlar tizimining o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Budjetlararo transfertlar davlat budjet tizimining turli darajalari, xususan, respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyoti, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shaharlar mahalliy budjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasida o'zaro (ikki tomonlama) yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lardir. Mazkur fiskal vosita asosan hududiy budjetlar xarajatlarini qoplash, ularning daromadlar bazasini tenglashtirish hamda maqsadli jamg'armalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliyotda ushbu transfertlar subvensiya, dotatsiya, o'tkazib beriladigan daromadlar, maqsadli ijtimoiy ajratmalar, budjet ssudalari hamda o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlari orqali amalga oshiriladi..

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjetlaaro transfertlarning hududlarni rivojlantirishdagi ahamiyati mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari orqali tartibga solinga, shu bilan birga bugungi kunga qadar qator tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son[2] qaroriga muvofiq Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini reyting ko'rsatkichlari asosida baholashning 7 bosqichli sxemasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-sonli Qonunida hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni yumshatish maqsadida jami 18 462,2 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' ajratilishi belgilangan. Ushbu mablag'lar hududlararo budjet transferlari va boshqa fiskal mexanizmlar orqali taqsimlanib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyatini oshirish hamda moliyaviy resurslar tengsizliklarini kamaytirishga qaratilgan.

Coe, N. M., Hess, M., Yeungt, H. W. C., Dicken, P., & Henderson, J. hududiy rivojlanishga oid maxsus adabiyotlarda mahalliy institutsional tuzilmalar va ularning "global tushunchalarni o'zlashtirish yoki mahalliylashtirish" (hold down the global) salohiyatiga alohida urg'u berilgan. Bu jarayon firmalarning global ishlab chiqarish tarmoqlari hamda mintaqaviy iqtisodiyotlar o'rtasidagi "strategik bog'liqlikni" (strategic coupling) belgilab beradi. Mazkur bog'liqlik, pirovardida, qiymat yaratish, uni kengaytirish va o'zlashtirish jarayonlari orqali mintaqaviy rivojlanishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi[3].

Jackson, R. W., Hewings, G. J., Rey, S., & Lozano-Gracia, N. kabi olimlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga bo'lgan urinishlar inflatsiyaning chuqurlashib ketish xavfi tufayli cheklangan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish muvaffaqiyatli rivojlanish siyosatining ajralmas sharti bo'lishi mumkin[4].

Mintaqaviy rivojlanishni boshqarishga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar o'rtasida hududlarni samarali boshqarishning yagona vektori bo'yicha yakdil fikr mavjud emas. Bu jarayon hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga, davlatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga hamda jamiyat taraqqiyotining boshqa obyektiv shart-sharoitlariga bog'liqdir.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi "Rossiya Federatsiyasining 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi milliy rivojlanish maqsadlari to'g'risida"gi Farmonida belgilangan milliy rivojlanish maqsadlari fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Shu bois, muayyan hududlarda amalga oshiriladigan davlat dasturlari va milliy loyihalarni moliyalashtirish federal budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, ma'lum bir davlat vazifalarini bajarish uchun federal soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar berish, shuningdek, quyi darajadagi budjetlarga qaytarilmaydigan transfertlar ajratish ko'zda tutilgan[5].

Akindinova, N.V., Chernyavskii, A.V., and Chepel, A.A., fikriga ko'ra subfederal hokimiyat organlari, ya'ni hududiy va mahalliy hukumatlar hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning asosiy vazifasi mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining joriy xarajatlarini moliyalashtirishdan iborat bo'lib, bu bevosita aholining hayot sifatiga ta'sir ko'rsatadi[6].

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/-4803531

3 Coe, N. M., Hess, M., Yeungt, H. W. C., Dicken, P., & Henderson, J. (2017). 'Globalizing' regional development: A global pro duction networks perspective. Economy. https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781351159203-9/globalizing-regional-development-global-production-networks-perspective-neil-coe-martin-hess-henry-wai-chung-yeungt-peter-dicken-jeffrey-henderson

4 Jackson, R. W., Hewings, G. J., Rey, S., & Lozano-Gracia, N. (2019). Regional development: Challenges, methods, and models. WebBookof Regional Science. 2. https://researchrepository.wvu.edu/rri-web-book/2

5 Bukina, I.S., State and prospects of federal budget sustain ability in the new conditions, Federalizm, 2022, vol. 27, no. 4 (108), pp. 142–154.

6 Akindinova, N.V., Chernyavskii, A.V., and Chepel, A.A., Cross-country analysis of the structure and efficiency of budget expenditures, Vopr. Ekon., 2018, no. 12, pp. 5–27.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda vaqtli qatorlar tahlili metodlaridan unumli foydalanildi. Hududlararo iqtisodiy-fiskal nomutanosibliklarni oʻrganish maqsadida respublika hududlari oʻzining fiskal salohiyatiga koʻra uchta tizimli guruhga ajratildi. Budjetlararo transfertlarning Yalpi Ichki Mahsulot (YAIM) hamda Davlat budjeti xarajatlariga taʼsir darajasi 2020–2026-yillar maʼlumotlari kesimida chiziqli regressiya (Linear Regression) va Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti kabi ekonometrik modellar yordamida empirik tahlil qilinib, ularning multiplikativ effektlari ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-21-son[7] Farmoni bilan qayta tasdiqlangan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar — iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirish, “daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar” qatoriga kirish va kambagʻallik darajasini 7 foizgacha qisqartirish — kontekstida hududiy mutanosib rivojlanishni taʼminlash markaziy ahamiyat kasb etadi. 14 ta hududiy birlik (12 viloyat, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent shahri) oʻrtasidagi sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy farqlar — daromad, taʼlim, sogʻliq, infratuzilma va boshqa oʻlchamlardagi tafovutlar — strategik tartibga solishning differensial yondashuvini taqozo qiladi. Shu munosabat bilan Respublika budjetidan viloyatlar kesimida 2020 – 2025-yillarda mahalliy hokimiyatlar uchun muntazam ajratib kelinayotgan transfertlarning iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili amalga oshirildi (1-rasm).

**Budjetlararo transferlar miqdori (mlrd so'm)**

| Hududlar \ Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | 2026(prognoz) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston R. | — | 1 301.4 | 1 518.0 | 2 672.4 | 2 078.0 | 2 223.0 | 2 498.5 |
| Andijon viloyati | 616.2 | 876.7 | 1 682.3 | 2 805.5 | 1 913.8 | 2 180.0 | 2 215.6 |
| Buxoro viloyati | — | 440.0 | 442.3 | 645.9 | 361.1 | 693.8 | 1 022.4 |
| Jizzax viloyati | 448.2 | 490.0 | 824.6 | 1 284.4 | 888.6 | 1 103.1 | 1 252.4 |
| Qashqadaryo viloyati | 758.1 | 1 577.3 | 2 051.3 | 3 819.0 | 927.1 | 974.3 | 1 269.7 |
| Navoiy viloyati | — | — | — | — | 182.5 | 92.5 | 103.6 |
| Namangan viloyati | 977.7 | 1 284.0 | 1 704.8 | 2 899.9 | 1 984.0 | 2 228.4 | 2 287.4 |
| Samarqand viloyati | 321.8 | 1 102.7 | 1 008.0 | 2 196.3 | 1 588.5 | 2 093.3 | 1 703.3 |
| Surxondaryo viloyati | 839.1 | 1 293.6 | 1 987.0 | 3 248.9 | 1 832.6 | 2 062.3 | 2 165.5 |
| Sirdaryo viloyati | 343.9 | 534.3 | 673.2 | 1 086.2 | 901.8 | 812.1 | 687.1 |
| Toshkent viloyati | — | — | — | — | 517.3 | 262.6 | 294.2 |
| Farg'ona viloyati | 351.9 | 910.1 | 1 377.4 | 2 181.0 | 1 943.6 | 2 143.8 | 2 312.6 |
| Xorazm viloyati | 457.0 | 632.9 | 846.6 | 1 441.4 | 1 203.8 | 1 330.8 | 1 542.5 |
| Toshkent shahri | — | — | — | — | 513.9 | 262.2 | 295.2 |

1-rasm. 2020–2025-yillardagi budjetlararo transfertlar koʻrsatkichlari

Vaqtli qatorlar tahlili soʻnngi 5 yilda hududlarga ajratilayotgan moliyaviy mablagʻlar hajmining 2023-yilda eng yuqori choʻqqiga chiqqanini va gumbazsimon trayektoriyaga ega ekanligini koʻrsatadi. Hududlarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash hajmi eksponental ravishda oʻsgan. 2020-yilda jami transfertlari koʻrsatilgan hududlar miqdori 5 113,9 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilga kelib bu koʻrsatkich oʻzining tarixiy maksimumi — 24 280,9 mlrd soʻmga yetdi (4,7 barobardan ziyod oʻsish). Ushbu sakrash fiskal desentralizatsiya (markazlashtirishdan chiqarish), keng koʻlamli davlat infratuzilma dasturlari va hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni yumshatish

7 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-21-son Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769

zarurati bilan izohlanadi. 2024-yildan boshlab transfertlar hajmining mo‘tadillashishi va 16,8–19,6 trln so‘m oralig‘ida barqarorlashishi kuzatilmoqda. Bu budjet xarajatlarining optimallashtirilayotgani, subsidiyalash siyosatida manzillilikning kuchaytirilayotgani va mahalliy budjetlarning o‘zini o‘zi ta’minlash darajasi o‘sayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, moliyaviy ko‘makning hajmi va xarakteriga ko‘ra respublika hududlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

Birinchidan, butun davr davomida eng ko‘p mablag‘ jalb qilgan hududlar — Qashqadaryo (2023-yilda maksimal 3 819,0 mlrd so‘m), Surxondaryo (2023-yilda 3 248,9 mlrd so‘m), Namangan (2023-yilda 2 899,9 mlrd so‘m) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hisoblanadi. Issiqlik xaritasidagi to‘q yashil rang ushbu hududlarda aholi zichligi, geografik o‘ziga xoslik va mahalliy budjetlardagi ijtimoiy yuklamaning yuqoriligi sababli ichki daromadlar yetishmovchiligi saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan o‘rtacha o‘sib borish tendensiyasiga ega hududlar. Bu guruhga Samarqand, Andijon, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari kiradi. Ushbu hududlar 2023-yilga kelib transfertlar hajmining mutanosib ravishda o‘sishini (asosan 1,4–2,2 trln so‘m oralig‘ida) va keyinchalik barqaror mo‘tadillashuvini namoyish etgan. Bu iqtisodiy-agrarsanoat salohiyatni ushlab turishga qaratilgan moslanuvchan transfert siyosatidan dalolat beradi.

Uchinchidan yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega hududlar. Navoiy viloyati, Toshkent viloyati va Toshkent shahri iqtisodiy jihatdan alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. 2020–2023-yillar davomida ushbu yirik sanoat va ma’muriy markazlar budjetlararo transfertlarga deyarli ehtiyoj sezmagan (jadvaldagi chiziqlar), bu ularning mamlakatdagi asosiy “donor hududlar” ekanligini isbotlaydi. 2024–2026-yillarda ularga ajratilgan transfertlar juda kichik hajmda bo‘lib (masalan, Navoiy viloyatiga atigi 92,5–103,6 mlrd so‘m), bu aniq maqsadli davlat dasturlari yoki umumdavlat soliqlari ajratmalari normativlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq. 2026-yil uchun belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari (19 650,0 mlrd so‘m) keskin iqtisodiy tebranishlarsiz, rejaviy va muvozanatlashgan taqsimot tizimiga o‘tilganini ko‘rsatadi. Aksariyat transfert oluvchi hududlar uchun 2025-yilga nisbatan 5–12% atrofida mo‘tadil o‘sish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu inflyatsiya jarayonlari va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash talablariga mos keladi. Shu bilan bir qatorda tadqiqotda budjetlararo transfertlarning YaIM bilan davlat xarajatlari bilan o‘zaro bog’liqli regressiya tenglamasi asosida o‘rganilgan (2-rasm).




2-rasm. Budjetlararo transfertlarning YaIM va Davlat budjeti xarajatlari bilan chiziqli bog‘liqligi

Mazkur grafiklar orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda qo‘llaniladigan ekonometrik va statistik usullardan biri — **Chiziqli regressiya (Linear Regression)** tahlilini aks ettirilgan. Ushbu grafiklarda budjetlararo transfertlar hajmining mamlakat Yalpi Ichki Mahsuloti (YAIM) hamda Davlat budjeti xarajatlari bilan qay darajada chiziqli bog‘liqlikka ega ekanligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Grafiklar to‘plami ikkita mustaqil korrelyatsion-regressiyaviy modeldan tashkil topgan. Ikkala modelda ham **erkli o‘zgaruvchi (argument yoki *X* o‘qi)** sifatida bir xil ko‘rsatkich — **Budjetlararo transfertlar (mlrd so‘m)** tanlangan. **Erkli bo‘lmagan o‘zgaruvchilar (funksiya yoki *Y* o‘qi)** sifatida esa mos ravishda YAIM ko‘rsatkichi (chap grafikda) va Davlat budjeti xarajatlari (o‘ng grafikda) olingan.

Modellarda quyidagi statistik parametrlardan foydalanilgan:

**Regressiya tenglamasi *(y = ax + b):*** Erkli o‘zgaruvchining 1 birlikka o‘zgarganda, natijaviy omilning o‘rtacha necha birlikka o‘zgarishini ko‘rsatuvchi matematik model.

**Determinatsiya koeffitsiyenti (*$R^2$*):** Modelning aniqlik darajasini va natijaviy omildagi o'zgarishlarning necha foizi ushbu modelga kiritilgan argument orqali tushuntirilishini ko'rsatadi.

**Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti (Pearson *r*):** Ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikning kuchi va yo'nalishini belgilaydi.

Ushbu model budjetlararo ajratmalarning mamlakat iqtisodiy o'sishining bosh mezoni bo'lmish YAIM bilan o'zaro mutanosibligini o'rganadi. Tenglama $y = 45.415x + 533598.967$ ko'rinishiga ega. Bu shuni anglatadiki, budjetlararo transfertlar hajmi 1 mlrd so'mga ko'payganda, YAIM hajmi o'rtacha **45.415 mlrd so'm**ga ortishi chiziqli trend orqali ifodalanmoqda. Erkin had **(533598.967)** esa transfertlar nolga teng bo'lgan nazariy holatda YAIMning bazaviy darajasini ko'rsatadi. Pirson koeffitsiyentining 0.7 dan yuqori bo'lishi (Xedli-Cheddok shkalasiga ko'ra) ikki omil o'rtasida **yuqori darajadagi to'g'ri chiziqli bog'liqlik** mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni, transfertlar oshishi iqtisodiyotning umumiy ko'lamining kengayishi bilan hamohang kechmoqda. Determinatsiya koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, YAIM hajmidagi o'zgarishlarning **49.3%($R^2$= 0.493)** qismi aynan budjetlararo transfertlar hajmining o'zgarishi bilan tushuntiriladi. Qolgan 50.7% o'zgarishlar esa modelga kiritilmagan boshqa makroiqtisodiy omillar (investitsiyalar, eksport, iste'mol va h.k.) ulushiga to'g'ri keladi.

Budjetlararo transfertlar va davlat budjeti xarajatlari regressiyasi tahliliga keladigan bo'lsak transfertlarning davlatning umumiy moliya-budjet tizimi xarajatlari bilan qay darajada bog'liqligini ochib beradi. Tenglama $y = 10.012x + 108578.065$ shaklida aniqlangan. Ushbu proporsiyaga ko'ra, budjetlararo transfertlar hajmining har 1 mlrd so'mga oshishi Davlat budjeti umumiy xarajatlarining o'rtacha **10.012 mlrd so'm**ga ko'payishi bilan kuzatiladi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.768 ga teng bo'lib, bu birinchi modelga nisbatan bog'liqlikning yanada mustahkamroq va kuchliroq ekanini ko'rsatadi. Budjet xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri transfertlar hajmi bilan juda kuchli bog'langan. Determinatsiya koeffitsiyenti **59.0% ($R^2$ = 0.590)**ni tashkil etadi. Bu davlat budjeti xarajatlaridagi variatsiyalarning (o'zgarishlarning) yarmidan ko'pi (59 foizi) aynan transfert siyosatining o'zgarishi bilan bog'liqligini anglatadi va model iqtisodiy jihatdan yuqori darajada tushuntirish qobiliyatiga ega ekanini isbotlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, zamonaviy makroiqtisodiy islohotlar sharoitida hududlarni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish va mintaqalararo fiskal nomutanosibliklarni yumshatishda budjetlararo transfertlarning o'rni va ahamiyati beqiyos darajada yuqoridir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ajratilayotgan transfertlar nafaqat budjet kamomadini qoplashga, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi muhim fiskal vosita hisoblanadi.

Xususan, moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi quyidagi strategik yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda:

***Birinchidan,*** so'nggi besh yilda (2020–2025-yillar) respublikada budjetlararo transfertlarni ajratish dinamikasi o'ziga xos gumbazsimon (bell-shaped) trayektoriyaga ega bo'lib, 2023-yilda o'zining tarixiy maksimumiga (24 280,9 mlrd so'm) yetganligi aniqlandi. 2024-yildan boshlab transfertlar hajmining mo'tadillashishi davlat budjeti xarajatlarining optimallashtirilayotgani, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida manzillilik prinsiplari kuchaytirilayotgani hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mahalliy budjetlarning o'zini o'zi ta'minlash darajasi bosqichma-bosqich oshib borayotganidan dalolat beradi.

***Ikkinchidan,*** hududlar iqtisodiy-fiskal salohiyatiga ko'ra keskin tabaqalangan bo'lib, ularni transfert siyosati xarakteridan kelib chiqib uchta tizimli guruhga (surunkali transfert oluvchi resurs-defitsit hududlar, moslanuvchan barqaror hududlar va sof subvensiyasiz donor hududlar) ajratish metodologik jihatdan o'zini oqlaydi. Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri kabi yirik sanoat-ma'muriy markazlarning budjetlararo transfertlarga deyarli ehtiyoj sezmaganligi ularning milliy budjet tizimidagi strategik barqarorlashtiruvchi rolini tasdiqlaydi.

***Uchinchidan,*** tuzilgan chiziqli regressiya modellari budjetlararo transfertlarning makroiqtisodiy parametrlarga ta'sir ko'rsatish kuchi va ahamiyatini ilmiy asoslab berdi. Bunda ajratilgan har 1 mlrd so'mlik transfert YaIMning o'rtacha 45.415 mlrd so'mga ko'payishi bilan hamohang kechishi va YaIM o'zgarishlarining qariyb yarmi (49.3 foizi) aynan transfertlar variatsiyasi bilan tushuntirilishi aniqlandi. Bu esa fiskal transfertlarning hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi multiplikativ effektini ko'rsatadi. Budjet xarajatlari bilan bog'liqlik yanada mustahkamroq bo'lib, umumiy budjet xarajatlaridagi tebranishlarning 59.0 foizi bevosita transfert siyosatining o'zgarishi bilan bog'liqligi ekonometrik jihatdan isbotlandi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va iqtisodiy o'sish nuqtalarini qo'llab-quvvatlashda budjetlararo transfertlar muhim fiskal vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu tizim samaradorligini yanada oshirish uchun transfertlarni taqsimlashda rejaviy-prognoz usullaridan natijadorlikka yo'naltirilgan (performance-based) fiskal nomarkazlashtirish modellariga to'liq o'tish hamda mahalliy hokimiyatlarning xususiy soliq bazasini kengaytirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish

maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (01.01.2014-yil holatiga muvofiq)
2. O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2025-yildagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni // URL: https://lex.uz/docs/-7949060
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4702-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/-4803531
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
6. Coe, N. M., Hess, M., Yeungt, H. W. C., Dicken, P., & Henderson, J. (2017). ‘Globalizing’ regional development: A global pro duction networks perspective. Economy. https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781351159203-9/globalizing-regional-development-global-production-networks-perspective-neil-coe-martin-hess-henry-wai-chung-yeungt-peter-dicken-jeffrey-henderson
7. Jackson, R. W., Hewings, G. J., Rey, S., & Lozano-Gracia, N. (2019). Regional development: Challenges, methods, and models. WebBookof Regional Science. 2. https://researchrepository.wvu.edu/rri-web-book/2
8. Bukina, I.S., State and prospects of federal budget sustain ability in the new conditions, Federalizm, 2022, vol. 27, no. 4 (108), pp. 142–154.
9. Akindinova, N.V., Chernyavskii, A.V., and Chepel, A.A., Cross-country analysis of the structure and efficiency of budget expenditures, Vopr. Ekon., 2018, no. 12, pp. 5–27.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**